

Uch tomonlama memorandum imzolandi

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Navoiy bo'limi, Navoiy viloyati xalq ta'lifi xodimlarini kayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi hamda Navoiy davlat pedagogika instituti o'rtaсидаги о'заро hamkorlik tug'risidagi memorandum imzolandi.



Tomonlar mazkur memorandum qoidalari hamda o'zlarining vakolatlari doirasida maktablar va oliy ta'lif muassasalaridagi ta'lif sharoitini o'rganadilar, pedagoglarning dars beradigan fanlari bo'yicha hamda o'quvchilarning bilimi va salohiyatini diagnostika qiladilar, maktab va oliy ta'lifda, ta'lif sifatini tahlil qilish bo'yicha tegishli tadbirlar rejasini ishlab chikadilar va bajarilishini ta`minlaydilar, maktablarda yaratilgan sharoitlarni yanada takomillashtirish maqsadida uch tomonlama o'zaro manfaatli hamkorlikni amalga oshiradilar.

Umumiy o'rta ta'lif maktablari faoliyatini qo'llab-quvvatlashdagi o'zaro hamkorlik quyidagi asosiy yettita yo'nalishlarda olib boriladi: maktab bitiruvchilarining oliy ta'lif tizimidagi qamrovini oshirishda uslubiy ko'mak berish; yuqori sinf o'quvchilarining aniq va tabiiy fanlarga qiziquvchilari bilan, ularning qiziqishi va qobiliyatini inobatga olgan holda, maktab qoshida oliy ta'lif muassalariga kirish sinovlariga tayyorlov kurslarini tashkil etish; o'quvchilarni kasbga yo'naltirish maqsadida, maktabda "kasblar kuni"ni tashkil etish va yuqori malakali, o'z kasbining ustallari bo'lgan insonlar bilan uchrashuvlar yuyshtirish; O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ilgari surgan "Beshta tashabbus" doirasida doimiy ko'mak berish tadbirlarini yo'lga qo'yish; maktabdagagi ijtimoiy muhit va o'zaro munosabatlarni o'rganish, mavjud muammolar bo'yicha ota-onalar bilan suhbatlar o'tkazish, aniqlangan muammolarning yechimlarini topish bo'yicha mahalliy hokimlik va deputatlar kengashi bilan hamkorlik qilish; maktab faoliyatini doimiy tahlil qilib borish hamda monitoringini o'tkazish; ta'lif sifatini oshirish bilan bog'liq bo'lgan muhim qarorlarni qabul qilishda faol ishtirok etish; hamkorlikda homiylarni jalb qilish.

Jumladan, umumta'lif maktablari "Aniq fanlardagi innovatsiyalar davlat taraqqiyotining lokomativi", "Kelajakka raqamli texnologiyalar bilan" va "Olimlar - intellektual boylik" hamda "Hayot saboqlari", "Olimlar kuni" va "Kafedralalar soati" kabi mavzularda davra suhbatlari va ochiq muloqotlar o'tkazish amaliyotlarini joriy etish ko'zda tutilgan. Bundan tashqari, o'quvchilarda ilm-fanga qiziqishni uyg'otish maqsadida, ularning qiziqishlarini inobatga olgan holda darsdan tashqari fan to'garaklarini tashkil etish va

ta'lism jarayonlarida raqamli texnologiyalarni qo'llash uchun o'rganilayotgan jarayonlar modellarini yaratish hamda analiz va sintez masalalarini yechish uchun oliy ta'lism muassasasi mutaxassis-olimlari bilan nazariy tadqiqotlar olib borish ishlarida ko'maklashish; pedagogika yo'naliishidagi bitiruvchi kurs talabalarining amaliyotini matabda tashkil etish jarayonlarida o'qitish metodikasiga ilmiy yondashish ko'nikmalarini shakllantirishda ishtirok etish; oliy ta'lism muassasalariga o'qishga kirish ko'rsatkichlari bo'yicha "Qizil hudud"ga tushib qolgan umumta'lim maktablari pedagog xodimlarining o'z mutaxassisliklari bo'yicha navbatdan tashqari malaka oshirish kurslariga jalb qilish va shu maktablarda ta'lism sifatini yaxshilash bo'yicha amaliy yordam berish; iqtidorli o'quvchilar o'ttasida "Oliy ta'lism muassasasi olimpiadasi"ni o'tkazish va fanlarni o'zlashtirish ko'rsatkichi baland o'quvchilar uchun "Oliy ta'lism muassasasining faol abiturienti" faxriy yorlig'ini joriy qilish kabi bir qator amaliy ishlar belgilangan.

Memorandumni imzolash jarayonida tomonlar tanqli olimlar va malakali professor-o'qituvchilarni jalb qilgan holda hududda ta'lism sifatini yaxshilashda o'z hissalarini qo'shishga tayyor ekanliklarini ta'kidlab, yanada bilimliroq va ilmga chanqoq yoshlar soni ortishiga umid bildirdilar.